


IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar 2021 yilning 1 iyul holatiga 2 444 ta kichik biznes subyektlarini (dexqon va fermer xo'jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi. (2020 yilning shu davriga nisbatan 126,1 foizga ko'pdir).

**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**
2021 yilning 1 iyul holatiga (jamiga nisbatan foizda)
(dexqon va fermer xo'jaliklarisiz)



Eng ko'p kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning 28,8 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida (24,4 %), sanoat sohasida (22,6 %) va qurilishda (6,1 %) tashkil etilgan.

2021 yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

– investitsiyalar hajmi 5 316,3 mlrd. so'mlik (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 86,0 %) o'zlashtirildi va 2020 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 119,8 foizni tashkil qildi;

– qurilish ishlari hajmi 1 329,5 mlrd. so'mlik (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 96,1 %) va 2020 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 105,3 foizni tashkil qildi;

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1 866,6 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 53,4 %) tashkil qildi;

– xizmatlar hajmi 1 731,3 mlrd. so'mlik ko'rsatilib (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 59,6 %) 2020 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 114,9 foizni tashkil qildi;

– chakana tovar aylanmasi 3 209,9 mlrd. soʻmni (jami chakana tovar aylanmasining 86,1 %) 2020 yilning yanvar-iyuniga nisbatan oʻsish surʻati 107,7 foizni tashkil qildi;


– tovarlar eksport hajmi 40,5 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 43,6 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, tovarlar import hajmi 99,0 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 82,0 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;

– avtomobil transportida 13,0 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 93,5 %) 2020 yilning yanvar-iyuniga nisbatan oʻsish surʻati 103,8 foizni tashkil qildi;

– avtomobil transportida 45,1 ming yoʻlovchi tashilib (umumiy yoʻlovchi tashishdagi ulushi 96,3 %) 2020 yilning yanvar-iyuniga nisbatan oʻsish surʻati 102,9 foizni tashkil qildi;

2021 yilning yanvar-iyunida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi – 78,9 foizni, sanoatda – 53,4 foizni, qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligida – 99,4 foizni, qurilishda – foizni, eksportda – 43,6 foizni tashkil qilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi




Viloyat boʻyicha kichik tadbirkorlikda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish boʻyicha asosiy iqtisodiy koʻrsatkichlari

(umumiy hajmiga nisbatan mlrd. soʻmda)


Jizzax viloyati bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahar (507,0 mlrd. so'm), G'allaorol (425,6 mlrd. so'm), Zomin (167,1 mlrd. so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.

Yangiobod (31,7 mlrd. so'm), Arnasoy (39,1 mlrd. so'm) va Do'stlik (44,5 mlrd. so'm) tumanlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi pastligicha qolmoqda.

2020 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik biznesda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



2021 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Jizzax viloyati bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Jizzax shahrida (432,2 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (299,1 mlrd. so'm), G'allaorol (195,4 mlrd. so'm) va Zomin (184,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2020 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy ko'rsatkichlarda kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, % da

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>	<i>Qishloq xo'jaligi</i>
Jizzax viloyati	53,4	96,1	59,6	99,4
<i>shahar:</i>				
Jizzax	41,8	90,2	35,6	98,4
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	35,3	100,0	55,8	96,6
Baxmal	100,0	100,0	81,0	99,8
G'allaorol	98,2	100,0	85,1	99,7
Sharof Rashidov	52,5	100,0	81,2	99,7
Do'stlik	11,7	100,0	74,1	99,4
Zomin	69,1	100,0	75,8	99,2
Zarbdor	39,3	100,0	72,5	99,8
Zafarobod	46,7	96,1	72,3	99,8
Mirzacho'l	100,0	98,1	65,6	99,6
Paxtakor	59,8	100,0	72,3	96,2
Forish	87,2	100,0	81,2	99,3
Yangiobod	100,0	100,0	62,9	99,5

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda kichik tadbirkorlikning iqtisodiy ko'rsatkichlari sohalar bo'yicha tahlil qilinganida:

- sanoat tarmog'ida kichik tadbirkorlik Do'stlik (11,7 %), Arnasoy (35,3 %), Zarbdor (39,3 %) tumanlarida nisbatan kam, Baxmal (100,0 %), Mirzacho'l (100,0 %), Yangiobod (100,0 %) tumanlarida nisbatan yuqori ulushni tashkil etadi.

- qurilish tarmog'ida kichik tadbirkorlik ulushi viloyatga nisbatan Jizzax shahrida (90,2 %) kam foizni qolgan tumanlarda esa yuqori o'ringa ega.

- xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi Jizzax shahrida hamda Arnasoy tumani (55,8 %) qolgan hududlarga nisbatan kam (35,6 %), bo'lishiga qaramasdan, hajmi jihatidan qolgan hududlardan yuqori o'ringa ega.

- qishloq xo'jaligi tarmog'ida viloyat miqyosida yaratiladigan qo'shimcha qiymatning barchasi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshiriladi.